


## 2022- yilning yanvar-martida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 8 360,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 3,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,1 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>7 291,5</b>	<b>8 360,5</b>	<b>103,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 857,2	7 812,6	103,2
mahsulotlarga sof soliqlar	434,3	547,9	104,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>6 857,2</b>	<b>7 812,6</b>	<b>103,2</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1 427,8</b>	<b>1 640,0</b>	<b>101,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 280,6</b>	<b>2 454,3</b>	<b>102,3</b>
sanoat	1 721,3	1 833,6	104,7
qurilish	559,3	620,7	94,6
<b>xizmatlar</b>	<b>3 148,8</b>	<b>3 718,3</b>	<b>104,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	569,8	670,3	105,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	411,5	490,8	114,2
boshqa xizmat tarmoqlari	2 167,5	2 557,2	102,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 447,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 93,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 21,0 % ni, sanoat tarmog'i 23,5 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 47,6 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,0	93,4
mahsulotlarga sof soliqlar	6,0	6,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>20,8</b>	<b>21,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>33,3</b>	<b>31,4</b>
sanoat	25,1	23,5
qurilish	8,2	7,9
<b>xizmatlar</b>	<b>45,9</b>	<b>47,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,3	8,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	6,3
boshqa xizmat tarmoqlari	31,6	32,7

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,0 %), sanoatda – 104,7 % (23,5 %), xizmatlar sohasida – 104,8 % ni (47,6 %) tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining o'sish sur'atida esa kamayish yuz berdi va 94,6 % (YaHM tarkibida ulushi 7,9 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,7 % (8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,2 % (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,8 % dan (32,7 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 4,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – salbiy 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Qurilish tarmog'i esa – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,5 f.p.) ga ko'paydi.

**2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 117,3 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 113,7 % qayd etildi.

### 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 57,4 %ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-martida – 56,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

2021- yil

56,9 %

2022- yil

57,4 %